

Pedagogik kengashda istiqboldagi rejalar belgilab olindi

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi Pedagogik kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Kengash a'zolari va tegishli mas'ullar ishtirok etgan tadbirni akademik litsey ijrochi direktori Dilshodxon Islomov olib bordi.

Dastlab Kengashda ijro intizomi ko'rib chiqildi. Litseyda Davlat dasturlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi buyruqlari, farmoyishlari hamda litsey Kengashi qarorlarining bajarilish masalasi muhokama qilindi.





SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati